

**“Dehqonobod kaliy zavodi” aksiyadorlik jamiyati
yagona aksiyadorining
17-son qarori**

2023-yil 19-oktabr
soat 10:00

Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi, 38-uy

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ tomonidan muomalaga chiqarilgan 2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to‘qson ikki million to‘qqiz yuz yigirma to‘rt ming uch yuz o‘n besh) dona oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz ovoz beruvchi aksiyalari Jamiyat yagona aksiyadori – “O‘zkimyosanoat” AJga tegishli bo‘lganligi sababli kvorum 100 foizni tashkil qiladi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasi hamda jamiyat ustaviga muvofiq yakka tartibda qabul qilindi va 2023-yilning 19-oktabr kuni yozma shaklda rasmiylashtirildi.

KUN TARTIBI:

1. “Dehqonobod kaliy zavodi” aksiyadorlik jamiyatining qo‘shimcha aksiyalarini chiqarish orqali ustav kapitalini oshirish to‘g‘risida.

2. “Dehqonobod kaliy zavodi” aksiyadorlik jamiyatining aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorini tasdiqlash to‘g‘risida.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaroriga asosan Moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi, “O‘zkimyosanoat” AJning “Dehqonobod kaliy zavodi” aksiyadorlik jamiyatining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi oldidagi qarzdorligini jamiyat ustav kapitalida “O‘zkimyosanoat” AJ ulushini oshirish hisobiga kapitalizatsiya qilish hamda mos ravishda qo‘shimcha aksiyalarni emissiya qilish orqali yopiq obuna usulida “O‘zkimyosanoat” AJ ustav jamg‘armasida Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi ulushini shakllantirish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilgan.

Mazkur qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ yagona aksiyadorining 2021-yil 13-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan “Dehqonobod kaliy zavodi” AJning qo‘shimcha aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarori Kapital bozorini rivojlantirish agentligi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan 2021-yil 14-aprelda D0290-3-son bilan (identifikatsiya raqami RU103D0290T2) ro‘yxatga olindi.

Jamiyatning aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarori asosida nominal qiymati 1 (bir) so‘m bo‘lgan, umumiy hajmi 1 604 353 917 908 so‘mlik,

1 604 353 917 908 dona oddiy aksiyalar jamiyat yagona aksiyador – “O‘zkimyosanoat” AJga to‘liq joylashtirilgan.

Ma’lumot uchun:

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar uchun to‘lovlar quyidagi manbalar hisobiga amalga oshirilgan:

- “O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan ajratilgan ssuda 51 758 837 665 so‘m (qoldiq 58 tiyin);

- O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining kreditlari bo‘yicha “Dehqonobod kaliy zavodi” AJning asosiy qarzi va unga hisoblangan foiz hamda penyalari 1 552 595 080 243 so‘m.

Shuningdek qaror talablariga asosan “O‘zkimyosanoat” AJ yagona aksiyadorining 2023-yil 26-iyulda 13/13-8-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zkimyosanoat” AJning qo‘shimcha aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarori O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2023-yil 5-sentabrda P0315-17-son bilan (identifikatsiya raqami RU117P0315T0) ro‘yxatga olindi.

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJga ajratilgan O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining kreditlari bo‘yicha 2023-yil 15-iyul holatiga “Dehqonobod kaliy zavodi” AJning asosiy qarzi va unga hisoblangan foiz hamda penyalari 165 067 912,11 (bir yuz oltmish besh million oltmish yetti ming to‘qqiz yuz o‘n ikki dollar o‘n bir sent) AQSh dollari ya’ni 21.07.2023-yil holatiga jami 1 913 630 654 412,11 (bir trillion to‘qqiz yuz o‘n uch milliard olti yuz o‘ttiz million olti yuz ellik to‘rt ming to‘rt yuz o‘n ikki so‘m o‘n bir tiyin) so‘mni tashkil etdi.

Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 21.07.2023-yil holatiga belgilangan xorijiy valyuta 1 (bir) AQSh dollarning so‘mga nisbatan qiymati 11 592,99 so‘mni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hamda “O‘zkimyosanoat” AJ o‘rtasida aksiyalarni joylashtirish to‘g‘risida 2023-yil 25-sentabrda shartnoma rasmiylashtirilib, “Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi” AJ tomonidan 2023-yil 25-sentabrda 312/865-son bilan ro‘yxatga olindi hamda nominal qiymati 1 145 so‘m bo‘lgan, umumiy hajmi 1 913 630 653 315 so‘mlik, 1 671 293 147 dona oddiy aksiyalar to‘liq joylashtirildi.

Shuningdek, “O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan 1 097,11 so‘m qoldiq mablag‘ Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining hisob-raqamiga o‘tkazib berildi.

Yuqorida qayd etilgan “O‘zkimyosanoat” AJga joylashtirilgan 1 913 630 653 315 so‘m hamda “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ yagona aksiyadorining 2021-yil 13-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan va Kapital bozorini rivojlantirish agentligi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan 2021-yil 14-aprelda D0290-3-son bilan ro‘yxatga olingan “Dehqonobod kaliy zavodi” AJning qo‘shimcha aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining kreditlari bo‘yicha “Dehqonobod kaliy zavodi” AJning asosiy qarzi va unga hisoblangan foiz hamda penyalari 1 552 595 080 243 so‘m o‘rtasidagi farq 361 035 573 072 so‘mni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda – Qonun) 18-moddasiga asosan qo‘shimcha aksiyalar faqat jamiyat ustavida belgilangan,

e'lon qilingan aksiyalarning soni doirasida jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin.

Ustavning 5.10-bandiga asosan jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari – Jamiyat ustav fondini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda joylashtirishga haqli bo'lgan e'lon qilingan aksiyalarining soni nominal qiymati 1 (bir) so'mlik 8 390 075 040 936 (sakkiz trillion uch yuz to'qson milliard yetmish besh million qirq ming to'qqiz yuz o'ttiz olti) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalardan iborat.

Bugungi kunda “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ ustav kapitalining miqdori 2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to'qson ikki million to'qqiz yuz yigirma to'rt ming uch yuz o'n besh) so'mni tashkil etadi hamda nominal qiymati 1 (bir) so'm bo'lgan 2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to'qson ikki million to'qqiz yuz yigirma to'rt ming uch yuz o'n besh) dona egasi yozilgan oddiy aksiyalarga bo'lingan. Ushbu aksiya paketlari jamiyatning yagona aksiyadori – “O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatiga tegishli.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish tartibi va shartlarini quyidagicha belgilash taklif etildi:

Aksiyalar turi oddiy egasining nomi yozilgan;

Aksiyalar chiqarilishining shakli hujjatsiz;

Aksiyalarning nominal qiymati 1 (bir) so'm;

Aksiyalarning soni 361 035 573 072 (uch yuz oltmish bir milliard o'ttiz besh million besh yuz yetmish uch ming yetmish ikki) dona;

Chiqarilishning umumiy hajmi 361 035 573 072 (uch yuz oltmish bir milliard o'ttiz besh million besh yuz yetmish uch ming yetmish ikki) so'm;

Aksiyalar yopiq obuna usulida “O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatiga joylashtiriladi;

Aksiyalarni joylashtirish qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaror davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab 30 kundan kechiktirmasdan amalga oshiriladi.

Aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi – qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sana hisoblanadi;

Aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi – ushbu chiqarilishning oxirgi aksiyasi joylashtirilgan sana, lekin davlat ro'yxatiga olingan sanadan 30 kundan oshmasligi lozim;

Aksiyalar qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari uyushmagan bozorlarda to'g'ridan-to'g'ri bitimlar tuzish va Qimmatli qog'ozlarning markaziy depozitariysida ro'yxatdan o'tkazish yo'li bilan joylashtiriladi;

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirishda yagona aksiyador imtiyozli huquqni qo'llamaydi.

Aksiyalar 1 (bir) so'mdan joylashtiriladi;

Aksiyalar uchun to'lovlar jami 361 035 573 072 so'mlik “Dehqonobod kaliy zavodi” AJga ajratilgan O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining kreditlari bo'yicha 2023-yil 15-iyul holatiga jamiyatning 165 067 912,11 (bir yuz oltmish besh million oltmish yetti ming to'qqiz yuz o'n

ikki dollar o'n bir sent) AQSh dollari ya'ni 21.07.2023-yil holatiga jami 1 913 630 654 412,11 (bir trillion to'qqiz yuz o'n uch milliard olti yuz o'ttiz million olti yuz ellik to'rt ming to'rt yuz o'n ikki so'm o'n bir tiyin) so'm asosiy qarzi va unga hisoblangan foiz hamda penyalarning farqi hisobidan Jamiyat buxgalterlik balansida tegishli o'tkazmalar orqali amalga oshiriladi.

"O'zkimyosanoat" AJdan "Dehqonobod kaliy zavodi" AJga ajratilgan ssudadan 58 tiyin hamda "O'zkimyosanoat" AJdan Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisob-raqamiga o'tkazib berilgan 1 097,11 so'm qoldiq mablag'lar "DKZ" AJ tomonidan "O'zkimyosanoat" AJga o'tkazib beriladi.

Aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda, ushbu chiqarilishdagi aksiyalar to'loviga yo'naltirilgan mablag'lar tegishli buxgalterlik o'tkazmalar orqali qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshmagan deb topilgan kundan boshlab o'n kun ichida qaytariladi.

("Dehqonobod kaliy zavodi" AJning qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarori ilova qilinadi).

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan qaror qilindi (2 301 392 924 315 dona ovoz, 100 %):

1. "Dehqonobod kaliy zavodi" AJning nominal qiymati 1 so'mdan bo'lgan 361 035 573 072 dona umumiy qiymati 361 035 573 072 so'mlik egasi yozilgan oddiy qo'shimcha aksiyalar chiqarilsin.

Aksiyalar yopiq obuna usulida "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatiga joylashtirilsin.

Aksiyalarni joylashtirish qo'shimcha aksiyalar chiqarish to'g'risidagi qaror qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 30 kun ichida amalga oshirilsin.

Aksiyalar qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari uyushmagan bozorida to'g'ridan-to'g'ri bitimlar tuzish va "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" AJda ro'yxatdan o'tkazish yo'li bilan qonun hujjatlariga muvofiq joylashtirilsin.

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar 1 (bir) so'mdan joylashtirilsin.

Aksiyalar uchun to'lovlar jami 361 035 573 072 so'mlik "Dehqonobod kaliy zavodi" AJga ajratilgan O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining kreditlari bo'yicha 2023-yil 15-iyul holatiga jamiyatning 165 067 912,11 (bir yuz oltmish besh million oltmish yetti ming to'qqiz yuz o'n ikki dollar o'n bir sent) AQSh dollari ya'ni 21.07.2023-yil holatiga jami 1 913 630 654 412,11 (bir trillion to'qqiz yuz o'n uch milliard olti yuz o'ttiz million olti yuz ellik to'rt ming to'rt yuz o'n ikki so'm o'n bir tiyin) so'm asosiy qarzi va unga hisoblangan foiz hamda penyalarning farqi hisobidan Jamiyat buxgalterlik balansida tegishli o'tkazmalar orqali amalga oshiriladi.

"O'zkimyosanoat" AJdan "Dehqonobod kaliy zavodi" AJga ajratilgan ssudadan 58 tiyin hamda "O'zkimyosanoat" AJdan Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisob-raqamiga o'tkazib berilgan 1 097,11 so'm qoldiq mablag'lar "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ tomonidan "O'zkimyosanoat" AJga o'tkazib berilsin.

Mazkur chiqarilish amalga oshmagan deb topilgan taqdirda, ushbu chiqarilishdagi aksiyalar to'loviga yo'naltirilgan mablag'lar qonunchilikda

belgilangan tartibda aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan kundan boshlab, 10 kun ichida qaytariladi.

2. "Dehqonobod kaliy zavodi" AJning qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Jamiyat boshqaruvi raisi v.b. (Zaripov)ga o'rnatilgan tartibda:

- aksiyalar qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi qarorni belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish;

- jamiyat aksiyalarini joylashtirish bilan bog'liq hujjatlarni o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirish vazifalari topshirilsin.

Jamiyatning yagona aksiyadori
"O'zkimyosanoat" AJ nomidan
boshqaruv raisi v.b.



T. Muxamedjanov